

**Toshkent arxitektura-qurilish universitetida Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

Ushbu korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizomi (keyingi o‘rinlarda- Nizom) Toshkent arxitektura-qurilish universitetida (Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo`limi) korrupsiyaga qarshi kurash tizimining faoliyatida hisobdorlikni shakllantirish bo‘yicha tartibni belgilaydi.

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining faoliyat yuritishi va rivojlanishi masalalari bo‘yicha hisobotni (keyingi o‘rinlarda – Hisobot) shakllantirish va taqdim etish uchun mas’uliyat universitetining Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo`limi (keyingi o‘rinlarda – Bo`lim) zimmasida bo‘ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo`limiga hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish uchun mas’uliyat universitetning mas’ul xodimlari (keyingi o‘rinlarda – Mas’ul xodim) zimmasida bo‘ladi.

**2-bob. Hisobot turlari va uni tuzish davriyiligi**

Universitetda quyidagi hisobot turlari nazarda tutilgan:

a) universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyati to‘g‘risida, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi “Yo‘l xaritasi” ijrosi bo‘yicha umumiy hisobot Bo‘lim va mas’ul xodimlar tomonidan har chorakda Nizomning 3-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

b) universitetda korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillarga rioya qilish ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar (komplayens-nazoratlar) natijalari bo‘yicha hisobot Bo‘lim va mas’ul xodimlar tomonidan universitetida «Korrupsiyaga qarshi jarayonlar samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti»da belgilangan tartibda tuziladi;

v) universitetda ichki me’yoriy xujjalalar talablariga rioya etish bo‘yicha hisobotlar Ichki audit funksiyalarini bajaruvchi Bo‘lim tomonidan uslubiyot va standartlar hamda «Korrupsiyaga qarshi jarayonlar samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti»da belgilangan tartibda tuziladi;

g) korrupsiyaga qarshi kurash tizimining ISO 37001:2016 standartiga muvofiqligi bo‘yicha o‘tkazilgan ichki audit natijalari bo‘yicha hisobot universiteti tizimida ichki audit vazifasini bajaruvchi bo‘limlar tomonidan «Korrupsiyaga qarshi jarayonlar samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti»da belgilangan tartibda tuziladi;

d) O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurash Milliy kengashi (keyinchalik – Milliy kengash) va yoki uning ishchi organi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb

yuritiladi) tomonidan tayyorlangan Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish natijalari yuzasidan hisobot Bo'lim va mas'ul xodimlar tomonidan har chorakda ushbu Nizomning 4-bobida ko'rsatilgan tartibda tuziladi;

e) korrupsiyaviy xavf-xatarlar birlashgan xaritasi Korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul tomonidan har yili universitetda «Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti»da nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi;

Hisobot muntazam ravishda ushbu Nizomda belgilangan tartibda va muddatlarda, universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatidan, shuningdek, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilgan yokiyo'qligidan qat'i nazar, tuziladi.

Yilning IV choragi uchun hisobot tuzilmaydi, uning o'rniga yillik hisobot tayyorlanadi.

Har choraklik va har yillik hisobot Tashkilot tizimi rahbarlariga, Tashkilot hay'atiga topshiriladi.

Universitetda Korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul Bo'lim har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining birinchi o'n kunligida har choraklik hisobotni Agentlikka ko'rib chiqishi uchun tavsiya qilib boradi.

Universitetining yillik hisobotidagi umumiy axborot internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytda e'lon qilinadi. Mazkur axborot bo'lim tomonidan tayyorlanadi.

### **3- bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risida hisobotni shakllantirish tartibi**

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi hisobot korrupsiyaga qarshi kurash tizimini monitoring va nazorat qilish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlardagi tadbirlarning amalga oshirilishini monitoring qilish maqsadida tuziladi.

Hisobot har chorakda bo'lim tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 21-sanasidan kechiktirmay tuziladi va universitet rahbariga, universitet hay'atiga ko'rib chiqish uchun topshiriladi.

Hisobotni shakllantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) hisobot davridan keyingi oyning 3-sanasidan kechiktirmay, Bo'lim universitet tizimi rahbarlariga korrupsiyaga qarshi kurash tizimining faoliyati haqidagi hisobotni tayyorlash uchun axborot taqdim etish zarurligi to'g'risida xabarnoma (so'ralayotgan axborot va uni taqdim etish muddatlari ko'rsatilgan holda) yuboradi;

b) olingan axborot asosida bo'lim korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyati haqidagi hisobotni ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq tayyorlaydilar, zaruriyat bo'lganda, tegishli organlar va muassasalar xodimlarini ham bunga jalb qiladilar. Mas'ul shaxslar hisobot davridan keyingi oyning 15- sanasidan kechiktirmay Bo'limga hisobot jo'natadilar.

Universitetning hisobotlari tegishli rahbarlar tomonidan tasdiqlanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi hisobot universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to'g'risidagi hisobotning biron-bir bo'limi bo'yicha tadbirlar o'tkazilmagan taqdirda, Korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul tadbirlar amalga oshirilmaganligi sababini ko'rsatishi lozim.

v) korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash

tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi hisobotlarga kiritilgan axborot tegishli hujjatlar nusxalari va boshqa ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi kerak;

g) Bo`lim korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risida taqdim etilgan hisobotlarning universitet tomonidan tahlil qilinishini amalga oshiradi va ushbu Nizomga 1-ilovada ko'rsatilgan shaklda universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tizimning faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi umumiyligi hisobotni tuzadi hamda qo'shimcha ravishda unga ushbu Nizomga 2-ilovadagi shakl bo'yicha universitet bo'yicha tuzilgan hisobotdagi ma'lumotlarni kiritadi.

Hisobotda asosiy axborotni o'zida aks ettirgan qisqacha ma'lumotnomasi va takliflar bo'lishi kerak. Yillik hisobot o'z ichida o'tgan yilning xuddi shunday ko'rsatkichlariga ega bo'lgan solishtirma tahlilni ham qamrab olishi kerak.

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi hisobotlar va umumiyligi hisobotni tuzishda Bo`lim korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ullardan zarur hujjatlar, tushuntirish, statistik ma'lumotlarni so'rash va olish huquqiga ega.

Bo`lim rahbari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi umumiyligi hisobot hamda biriktirilgan qisqa ma'lumotnomani hisobot davridan keyingi oyning 21-sanasiga qadar universitet rahbariyatiga taqdim etadi.

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi umumiyligi hisobotni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha rektor hisobotga o'zgartishlar kiritish yoki korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish yo'nalishlari to'g'risida qaror qabul qiladi.

Rektor tomonidan umumiyligi hisobotni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha o'zgartishlar kiritish va yoki korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish yo'nalishlari to'g'risida qarori bo`limga taqdim etiladi.

Bo`lim ichki hujjatlarga o'zgartish yoki qo'shimchalar kiritish yoki yangi ichki hujjatlar va korrupsiyaga qarshi choralarini tatbiq etish zaruriyati to'g'risidagi axborotni tegishli bo`limlar e'tiboriga taqdim etadi, ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish muddatlarini belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

#### **4- bob. Korrupsiyaga qarshi kurashga oid Davlat dasturlarida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi hisobotni shakllantirish tartibi**

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalahtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi hisobot ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shaklda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini bajarish va Agentlik e'tiboriga taqdim etish maqsadida tuziladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalahtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi hisobot bo`lim tomonidan universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risida olingan hisobotlar asosida universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi umumiyligi hisobot bilan bir vaqtida tuziladi va Rektorga ushbu Nizomga 3-ilovada ko'rsatilgan tartib va muddatlarda taqdim etiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturida rejalahtirilgan tadbirlarning amalga oshirilgani to'g'risidagi hisobot rahbar tomonidan ko'rib

chiqilgandan keyin vazirliklar hamda tegishli tashkilotlarga yuboriladi.

### **3-bob. Yakuniy qoidalar**

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va universitetning ichki idoraviy hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilgan taqdirda ushbu Nizom qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritishga Bo`lim mas’ul bo‘ladi.

*Toshkent arxitektura-qurilish universitetida  
korrupsiyaga qarshi kurashishtizimining holati  
to‘g‘risida hisobdorlikni shakllantirish va taqdim  
etish Nizomiga  
1-ilova*

**Toshkent arxitektura-qurilish universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish  
tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida 202\_\_\_\_\_yil\_\_\_\_chi chorak uchun  
HISOBOT**

**I. Korrupsiyaga qarshi tadbirlar rejasi bajarilgani to‘g‘risida umumiy  
axborot<sup>1</sup>**

- universitet tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining amalga oshirilgani to‘g‘risidagi qisqa ma’lumot korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirgan bo‘limlar sonini ko‘rsatish zarur;
- universitetda Korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirmagan bo‘limlar ko‘rsatiladi, shuningdek, hisobotga ilovada ularning nomi, amalga oshirilmagan tadbirlar va qisqacha asosiy sabablarini alohida ko‘rsatish lozim.

**II. Siyosat va tartib-taomillar**

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha sohalarni tartibga soluvchi hisobot davrida tafbiq etilgan korrupsiyaga qarshi sohasiga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy va ichki hujjatlar (siyosatlar, Nizomlar, standartlar, yo‘riqnomalar va shu kabilar)ni ko‘rsatish lozim.

**III. Yuqoridan ohang (Ton sverxu)**

Universitetda “yuqoridan ohang”ni shakllantirish bo‘yicha tadbirlarning asosiy turlarini belgilash va ularning sonini (masalan, universitetdagи xodimlarga nutqlari, shu qatorda tashqi tadbirlarda, uchrashuvlar, korrupsiyaga yo‘lqo‘ylmaslik uchun suhbatlarni) ko‘rsatish.

universitetda olib borilayotgan alohida keng ko‘lamli tadbirlarni qayd etishlari mumkin.

---

Ushbu bo‘limda va keyingi o‘rinlarda hisobotning har bir bo‘limi bo‘yicha quyidagilarni ko‘rsatish kerak:

- birlashgan ko‘rinishda hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida hisobot davri uchun ma’lumotlar. Agar zaruriyat bo‘lsa, alohida bo‘linmalar va ular bo‘yicha ma’lumotlarni ko‘rsatish;
- zaruriyat tug‘ilganda avvalgi davrlar ko‘rsatkichlari bilan solishtirma tahlil o‘tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik\erishmaganlik sabablarini ko‘rsatish lozim.

#### **IV. Xavf-xatarlarni baholash<sup>2</sup>**

- universitet tomonidan xavf-xatarlarni baholash bo'yicha qilingan ishlar yuzasidan axborot, shu jumladan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholab, o'z matritsalarini yangilagan hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida ularning soni ko'rsatilishi lozim;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirmaganlar soni bo'limlar kesimida ko'rsatiladi, shuningdek, hisobot ilovasida ularning nomi va bajarilmaganligi sabablari qisqacha bayon qilinadi;
- baholash jarayonida yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar universitet bo'limlari kesimida ko'rsatiladi. Shuningdek, hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo'yicha taklif etilgan va amalga oshirilgan tadbirlar qayd etiladi;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar bo'yicha nisbati (yuqori, o'rta, past) bo'limlar kesimida ko'rsatiladi;
- bo'limlar kesimida universitet uchun yuqori bo'lган qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar, shuningdek, ko'rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun taklif etilayotgan tadbirlarni ko'rsatish lozim (mavjud bo'lган taqdirda).

#### **V. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar.**

##### **Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish**

Manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalangan va tartibga solingan holatlari soni, shu jumladan, ishga qabul qilish, har yillik deklaratsiyalash jarayonida<sup>3</sup> (mavjud bo'lган taqdirda), bo'limlar kesimida ko'rsatiladi;

Universitetda manfaatlar to'qnashuvini bo'limlar kesimida manfaatlar to'qnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning umumiyligi xodimlar soniga foizlardagi nisbati, shuningdek, deklaratsiyalangan va tartibga solingan manfaatlar to'qnashuvi holatlari qayd etiladi;

Universitet bo'yicha rejalashtirilgan manfaatlar to'qnashuvining har yillik deklaratsiyalananadigan manfaatlar to'qnashuviga nisbatan ko'rsatkichlari bajarilmagan bo'limlari kesimida tahliliy ma'lumotlarni keltirish kerak (masalan, manfaatlar to'qnashuvini barcha rahbarlar deklaratsiyalashi lozim, amalda esa faqat 50% gina rahbar buni bajargan);<sup>4</sup>

---

<sup>1</sup> Bo'lim faqat har yillik hisobot davrida to'ldiriladi. Mazkur bo'limda universitet tizimida korruption tavakkalchiliklarni baholashni o'tkazish uslubiyotiga muvofiq amalga oshirilgan xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tahliliy axborot aks ettiriladi.

<sup>2</sup> Manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish hisobot davrida bajarilgan bo'lsagina axborot to'ldiriladi.

Bo‘limlar kesimida universitetda aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi va qabul qilingan choralar bo‘yicha, shu jumladan, umumiylar soni va toifalar kesimida (*masalan, xarid protseduralaridagi, ish bo‘yicha bevosita bo‘ysunish natijasida va shu kabilarda*) tahliliy ma’lumotlarni keltirish lozim.

### **Korrupsiyaga qarshi qoidalar:**

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni universitetning xo‘jalik shartnomalariga (shartnomalarning foizli nisbati) kiritish bo‘yicha bo‘limlar kesimidagi kontragentlar tahririda tahliliy ma’lumotlarni keltirish, kontragentlarning korrupsiyaga qarshi qoidalarni shartnomalarga kiritishni rad etish sabablarini ko‘rsatish;

Universitetda kontragent tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalari buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni ko‘rsatish.

### **Kontragentlarni tekshirish:**

Hisobot davrida kontragentlar bo‘yicha o‘tkazilgan tekshiruvlar sonini, ijobjiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbatini bo‘limlar kesimida ko‘rsatiladi.

### **Ishga nomzodlarni tekshirish:**

Universitetga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar soni ko‘rsatiladi.

## **VI. Ta’lim va kommunikatsiya:**

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitishning natijalarini bo‘limlar kesimida:

- o‘qitilgan xodimlarning foizdagi (umumiylar mazmuni yoki uning aniq bo‘linmalar jarayonlariga moslashtirilgan ko‘rinishi) nisbati, ta’lim shakli (bevosita/onlayn) ko‘rsatiladi;
- universitet bo‘yicha o‘qitish darajasi past bo‘lgan korrupsiyaga qarshi ko‘nikmalarga oid axborot ko‘rsatiladi (rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarga taqqoslangan holda);
- universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha kommunikatsiya turlari va sonini bo‘limlari kesimida(masalan, tarqatmalar, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazish) ko‘rsatiladi;

Bo`limda, shuningdek, universitetda o‘tkazilgan keng ko‘lamli alohida tadbirlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

---

<sup>4</sup> Axborot faqat yillik hisobotda to‘ldiriladi.

## **VII. Korrupsion xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar.**

- hisobot davrida xodimlarning korrupsion xatti-harakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar bo‘limlar kesimida ko‘rsatiladi;

- mansab vazifalari va tartib-taomillar kesimida olingan tahliliy ma’lumotlar (masalan, xaridlar jarayonida, kadrlarni ishgga qabul qilish bilan bog‘liq tartib-taomillarda) keltiriladi;

- olingan xabarlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar qoidabuzarliklar bo‘limlar kesimida keltiriladi (masalan, korrupsion xatti-harakatlar, manfaatlar to‘qnashuvi, kelishuv tartib-taomillarini protseduralarini buzish va boshqalar);

Olingan xabarlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar aloqa kanallari kesimida keltiriladi (masalan, ishonch telefoni, bevosita xabar berish va boshqalar).

## **VIII. Monitoring va nazorat**

Bo‘limlar kesimida hisobot davrida universitet tomonidan mavjud korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari va tartib- taomillarning bajarilgani to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar keltiriladi, shu jumladan, o‘tkazilgan tekshiruvlar soni, shuningdek, tekshiruv o‘tkazilgan vazifalar va tartib-taomillarining davriyligi va xarakteri to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar (rejadagi, rejadan tashqari) ko‘rsatiladi.

Bo‘limlar kesimida tekshiruvlar o‘tkazilmagan bo‘limlar soni alohida ko‘rsatiladi, ilovada ularning nomi hamda tekshiruvlar o‘tkazilmaganligining asosiy sabablari qisqacha qayd etiladi.

O‘tkazilgan tekshiruvlar natijalari to‘g‘risidagi umumiyligi axborot ko‘rsatiladi, shu jumladan, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati qayd etiladi. Qoidabuzarliklar mavjud bo‘lsa, mazkur hisobotning IX bo‘limga havola beriladi.

## **IX. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralarini**

Universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi talablarining buzilganligi to‘g‘risida bo‘limlar kesimida tahliliy ma’lumotlar ko‘rsatiladi, shu jumladan:

- qoidabuzarliklarning umumiyligi soni;
- qoidabuzarliklarning qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi axborot manbalaribo‘yicha tuzilmasi (“ishonch telefoni”, bevosita xabar berish, monitoring va nazorat natijalari va boshqalar);
- universitet ichki hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalar va tartib-taomillar bo‘yicha (xaridlar, kadrlarga oid masalalar va b.) qoidabuzarliklar tuzilmasi;

Universitetda qabul qilingan ta’sir choralarini to‘g‘risida tahliliy ma’lumotlarni bo‘limlar kesimida ko‘rsatish, shu jumladan:

---

<sup>5</sup> Bo‘limda hisobot davrida korrupsiyaga qarshi protseduralariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish metodikasiga muvofiq o‘tkazilgan tadbirlar yakunlari bo‘yicha umumiyligi tahliliy axborot aks ettiriladi.

- o‘tkazilgan umumiy tadbirlar soni va aniqlangan barcha qoidabuzarliklar bo‘yicha ta’sir choralar ko‘rilganligi yoki ko‘rilmaganligi;
- ta’sir choralari turlari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar (aybdorlarni javobgarlikka tortish, shu jumladan, javobgarlik turlari kesimida, jarayon va ichki hujjatlarga o‘zgartishlar kiritish va boshqalar), shu jumladan, zarur bo‘lgan holda qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qanday tadbirlarni tatbiq etish taklif etilmoqda va hisobot davrida qanday tadbirlar tatbiq etilganligi ko‘rsatiladi.

## X. Xulosalar

Universitetda bo‘limlar kesimida korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalari ko‘rsatiladi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatiga umumiy baho beriladi. Zaruriyatga ko‘ra avvalgi davrlardagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslama tahlil o‘tkaziladi, qoniqarli natijalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini qayd etiladi.

## XI. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va korreksiyalovchi (tuzatish) tadbirlar rejasi

Keyingi hisobot davrida universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida elementlari ko‘rsatkichlarini bo‘limlari kesimida yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlar ko‘rsatiladi.

*Toshkent arxitektura-qurilish universitetida  
 korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risida  
 hisobdorlikni shakllantirish va taqdim etish Nizomiga  
 1-ilova*

**Toshkent arxitektura-qurilish universitetida korrupsiyaga  
 qarshi kurashish tizimining- faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida**

**HISOBOT**

<b>Tashkilot nomi:</b>	Hisobot tuzilayotgan universitet nomi
<b>Hisobotni tayyorlagan xodim  (Korrupsiyaga qarshi kurashish  uchun mas’ullar):</b>	FISH, lavozimi, tuzilmasi
<b>Hisobot davri:</b>	
<b>Hisobot tayyorlangan sana:</b>	

**I. Korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlar korrupsiyaga qarshi kurashish  
dasturi, yo‘l xaritasi, rejasи bajarilganligi to‘g‘risida axborot**

T/r	Tadbirlar guruhining nomlari	Tadbirlarni ngnomlari	Bajarish muddati	Mas’ul ijrochilar	Ijro to‘g‘risida belgi	Ijro etilmagan bo‘lsa, ijro etilishi kutilayotgan muddat	Bajarilganlikni tasdiqlash, bajarilmagan bo‘lsa, sabablari

	Tadbir	Natijalar
<b>II.Siyosatlar va protseduralar</b>		
1.	Ichki hujjatlarini moslashtirish	Tarkibiy bo‘limda hisobot davri uchun moslashtirilgan korruption xavf- xatarlarni kamaytirish bo‘yicha choralar yoki korrupsiyaga qarshi kurashga oid tartib-taomillarga ega bo‘lgan ichki hujjatlarni (siyosatlar, Nizomlar, standartlar, yo‘riqnomalar va sh.k.) ko‘rsatish zarur.

2.	Xavf-xatarli vazifa va tartib-taomillar kesimida korruption xavf-xatarlarni kamaytirishga oid yangi korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar va choralar hamda korrupsiyaga qarshi masalalarni tartibga soluvchi ichki hujatlarni ishlab chiqish.	Hisobot davrida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurash sohasiga kiritilgan sohalarni tartibga soluvchi ichki hujatlarni (siyosatlar, Nizomlar, standartlar, yo'riqnomalar va sh.k.) ko'rsatish zarur.
----	---	--

### III. Shaxsiy namuna

3.	Universitet rahbarlari va ularning o'rinosarlarining ichki tadbirlardagi chiqishlari (nutqi).	3-6-bandlarda universitet rahbarlari va ularning o'rinosarlarining qonunchilik talablariga rioya qilish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish, tarkibiy bo'limda belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarga amal qilishning muhimligi to'g'risidagi pozitsiyasi, fikr-mulohazalari ochiq e'tirof etilgan tadbirlarni ko'rsatish lozim.
4.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha ichki kommunikatsiyani tarqatish (universiteti rahbarlari va ularning o'rinosarlarini nomidan).	
5.	Universitet rahbarlari va ularning o'rinosarlarining OAVdagi fikr-mulohazalari.	
	Universitet rahbarlari va ularning o'rinosarlarining har qanday shakl va ko'rinishdagi korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish tamoyillarini qo'llab-quvvatlashi va ularga sodiq ekanligini ko'rsatuvchi boshqa tadbirlar.	Masalan, korrupsiyaga qarshi kurashga oid treninglarda ishtirok etishi.

### IV. Xavf-xatarlarni baholash

	Universitetda korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo'yicha har yilik baholash	Har o'tkazilgan yoki o'tkazilmagan (sabablari ko'rsatiladi) jarayonda (qaysi bosqichdaliga ko'rsatiladi)
	Hisobot davri uchun universitetda ish jarayonda yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va ularning darajalari (yuqori, o'rta, past).	Yangi korrupsiyaviy xavf-xatarlar qaysi jarayonlarda aniqlanganligi, ularning darajasi sanab

#### IV. Xavf-xatarlarni baholash

7.	Universitetda korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo'yicha haryillik baholash o'tkazish	Ha o'tkazilgan yoki o'tkazilmagan (sabablari ko'rsatiladi) jarayonda(qaysi bosqichdaligi ko'rsatiladi)
8.		Yangi korrupsiyaviy xavf-xatarlar qaysi jarayonlarda aniqlanganligi, ularning darajasi sanab o'tiladi. Qanday korrupsiyaviy xavf-xatarlar qayta baholandi, yangi daraja, bahoni o'zgartirish sabablari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha takliflar, universitetning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ilova qilinadi.
9.	Hisobot davrida taklif etilgan va amalga oshirish davrida aniqlangan xavf-xatarlarni tartibga solish bo'yicha tadbirlar	
10.	Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni, yuqori bo'lgan qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar.	Yuqori bo'lgan qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarning foizdagi nisbati ko'rsatiladi
11.	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar umumiy soniga foizdagi nisbatini ko'rsatish zarur.

#### V. Korrupsiyaga qarshi amalga oshiriladigan tartib-taomillar

12.	Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini holatlari va qabul qilingan choralar	Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini holatlarning sonini ko'rsatish yoki aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini holatlari reestrini ilova qilish zarur.
13.	Xodimlar tomonidan har yili manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish.	Har yillik manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning tashkilotdagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur. Har yili manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyasini amalga oshirishi shart bo'lган manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning tashkilotdagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur.
14.	Ishga olingan xodimlar va nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar soni.	Ishga qabul qilingan xodimlar sonini va lavozimga nomzodlar tekshiruvni sonini ko'rsatish zarur.

15.	Hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari soni	Hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari sonini, tekshiruvlar natijalari bo'yicha ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur.
16.	Amalga oshiriladigan boshqa korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar	Mavjud bo'lganda ushbu bo'limda ko'rsatilmagan boshqa amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi tadbirlarni ko'rsatish.
<b>VI. Ta'lim va kommunikatsiya</b>		
17.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglar o'tkazish: barcha xodimlar uchun; rahbarlar uchun; korruption tavakkallchilikka eng ko'proq moylilik ehtimoli bo'lgan vazifalarni bajaruvchi bo'linmalar uchun.	Treninglar turi va shakli, o'qitilgan xodimlar soni, ularning lavozimlari darajasi va bo'linmalarni ko'rsatish.
18.	Yaqinda ishga olingan xodimlar uchun treninglar o'tkazish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglardan (umumiylar, tanishuv) o'tgan yangi xodimlarni umumiylar yangi xodimlar soniga foizlardagi nisbati treninglar mavzusi kesimida ko'rsatish.
19.	Xodimlarning korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va bo'linmada amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi chorallardan xabardorligini oshirishga oid boshqa tadbirlar	Tadbir ishtiroychilarning maqsadli guruhini, ularni soni (imkonli bo'lsa) mavzusi va turini (masalan, tanlovlardan, viktorinalardan, so'rovnoma va b. ko'rsatiladi) hamda uning yakunlarini ko'rsatish.
20.	Korrupsiyaga qarshi kurash uchun mas'ullar tomonidan bajarilgan korrupsiyaga qarshi kurash me'yorlari va manfaatlar to'qnashuvlarini boshqarish mavzusida axborot-tarqatma materiallari.	Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga amal qilish zaruriyatini to'g'risidagi, shu jumladan, ularning to'g'ri talqin qilinishi va ularga to'g'ri amal qilish to'g'risidagi xabarnoma va boshqa tarqatma materiallari.
21.	Xodimlarning odob-axloq madaniyatini shakllantirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurash tizimi va korrupsiyaga qarshi qonunchilikning talablari haqida xabardor qilishning boshqa usullari.	Masalan, binolardagi axborot plakatlari va boshqa materiallar, skrinsvayerlar, ishchi kompyuterlar ekraniga qo'yiladigan suratlar va boshqalar.
22.	Fuqarolik jamiyati va bo'linma kontragentlari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazish	Fuqarolik jamiyati vakillari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazishning soni, nomlanishi, mohiyati va natijalarini ko'rsatish (masalan, korrupsiyaga qarshi kurash kuni, korrupsiyaga qarshi mavzudagi ishlar tanlovi). Shartnomalariga korrupsiyaga qarshi

		qo'shimcha shartlar kiritilgan yangi kontragentlarning barcha kotragentlar umumiy soniga foizlardagi nisbati.
--	--	---

## **VII. Korruption xatti-xarakalar va qoida buzarliklar to'g'risidagi xabarlar. Ta'sir choralari**

23.	Xisoboot davrida xatti-harakatlar, shu jumladan, potensial xatti-harakatlar uchun aloqa kanallariga kelib tushgan xabarlar soni	Xabarlar sonini quyidagi ma'lumotlarni ham kiritgan holda ko'rsatish: kelib tushgan sanasi, kelib tushgan aloqa kanali , xabar mavzusi, tegishli hisobotni ilova qilish.
24.	Holatlar soni, ya'ni: xizmat tekshiruvini o'tkazilgan; Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi to'g'risida tasdiqlangan holatlar (shu jumladan, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va maqolalar kesimida) aniqlangan; Bo'linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlangan (shu jumladan, ichki hujjatlar kesimida); Aybdorlar aniqlangan.	Har bir band bo'yicha holatlar sonini ko'rsatish.
25	Qabul qilingan ta'sir choralari.	Qanday korreksiyalash choralari, shu jumladan, intizomiy jarima choralari qo'llanilganligi ko'rsatiladi. Ichki nazorat tizimida aniqlangan kamchiliklar va nazoratni kuchaytirish uchun qanday choralar taklif qilindi.

## **VIII. Monitoring va nazorat**

26	Hisobot davrida korrupsiyaga qarshi tegishli talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillar bajarilishi ustidan tekshiruvlar o'tkazildimi	Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha mas'ullar tomonidan o'tkazilgan tekshiruv tadbirlarini, shu jumladan, ularning sonini quyidagi kesimda ko'rsatish: Tekshiruv ob'ektlari (Bo'lim, bo'lim); Tekshiruv mavzusi (masalan, xaridlar, kadrlar); Tekshiruv tadbirlari turi (audit, tavakkal tranzaksiyalari monitoringi yoki protseduralari va b.); Tekshiruv tadbirlari xarakteri (rejali, rejadan tashqari).
27	Belgilangan nazorat tadbirlari va tartib-taomillar buzilishi holatlari aniqlanganmi va ularga nisbatan qo'llanilgan ta'sir choralari	Qaysi tartib-taomil yoki vazifani bajarishda qanday qoidabuzarliklar aniqlangan. Aniqlangan holatlar sonini ko'rsatish. Vazifa va tartib-taomillarni bajaruvchi shaxslar uchun qanday tavsiyalar tayyorlangan. Ular qanday rasmiylashtirilgan (masalan, buyruq yoki boshqa ichki hujjatlar).

**Xulosalar:** Bo‘limda korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalarini ko‘rsatish, korrupsiyaga qarshi kurash tizimi holatiga umumiylaho berish, zaruriyat tug‘ilganda avvalgi davrlar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslama tahlil o‘tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini ko‘rsatish zarur.

**Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va korreksiyalovchi tadbirlar rejasi:** kelgusi hisobot davrida hisobdorlikning alohida elementlarini yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlarni ko‘rsatish zarur.

*Toshkent arxitektura qurilish  
universitetida korrupsiyaga qarshi kurash  
tizimining holati to‘g‘risida hisobdorlikni  
shakllantirish va taqdim etish Nizomiga*

**3-ilova**

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat  
dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish  
to‘g‘risidagi  
HISOBOT**

<b>T/r</b>	<b>Tadbirlar nomi</b>	<b>Bajarish muddati</b>	<b>Amalga oshirilgan choralar</b>